



XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 24 - mart

VI-71-26-10-0-K/23

Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasining 2023-yil 15-fevraldagi “Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi №10.2/10-23-sonli taqdimnomasi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi topshirig‘iga muvofiq Departament tamonidan nazorat idoralarini jalb qilgan holda Toshkent viloyatidagi dehqon bozorlarining ahvoli, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini qish bahor masumiga zaxira g‘amlanishi hamda mablag‘larning maqsadli sariflanishi joyiga chiqqan holda o‘rganildi.

Qisqa muddatli o‘rganishlarda, dehqon bozorlari faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, infratuzilmasini yaxshilash, oziq-ovqat sohasiga ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishini ta‘minlashda hamda mahsulotlarni zaxiraga jamg‘arishda tizimli kachiliklar mavjudligi aniqlandi.

Xususan, bozorlarda savdolarni barcha mavsum sharoitida tashkil qilish, sanitariya va yong‘in xavfsizligini ta‘minlash, favqulodda hamda mol-mulkni himoya qilish qoniqarsiz ahvolga kelib qolgan.

Jumladan, 5 ta dehqon bozor (Bekobod, Bo‘ka, Oqqo‘rg‘on, Piskent, Toshkent tumanlari) ichimlik va oqova suv ta‘minotiga, 10 tasi (Angren, Ohangaron shaharlari, Oqqo‘rg‘on, Parkent, Piskent, Bo‘ka, Chinoz, Toshkent, Quyi Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Bekobod tumanlari) tarnov hamda qoldiq suvlarni bozor hududidan chiqarishga mo‘ljallangan tizimlarga ulanmagan, 7 ta (Angren, Oqqo‘rg‘on, Parkent, Piskent, Bo‘ka, Toshkent va Bekobod) bozorda qo‘l yuvish uchun sharoitlar mavjud

emas.

Angren, Bekobod, Ohangaron, Nurafshon shaharlari, Bo‘stonliq, Oqqo‘rg‘on, Parkent, Piskent, Bo‘ka, Chinoz, Toshkent, Yuqori Chirchiq tumanlaridagi dehqon bozorlarida oziq-ovqat mahsulotlari, xo‘jalik tovarlari hamda kimyoviy vositalarning rastalar segmentatsiya qilinmagan, Nurafshon dehqon bozorida esa hojatxona umuman yo‘q.

Chinoz, Piskent, Bo‘ka, Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq, Bo‘stonliq tumanlari, Angren, Ohangaron, Chirchiq va Nurafshon shaharlari bozorlari hududida avtoturargohlar tashkil etilmagan.

Toshkent, Oqqo‘rg‘on, Bo‘ka, Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq tumanlari, Ohangaron, Angren va Chirchiq shahar bozorlarida yog‘ingarchilik suvlarini bozor hududidan chiqib ketishi uchun oqava tarmoqlariga ulanmagan.

Toshkent, Oqqo‘rg‘on, Bo‘ka, Yuqori Chirchiq, Quyi Chirchiq tumanlari, Angren va Chirchiq shahar bozorlarida chiqindilarni to‘plash uchun alohida chiqindi saqlash joylari qurilmagan.

Toshken tumani va Ohangaron shahar dehqon bozorlari hududida yong‘inni o‘chirish uchun suv to‘plash havzalari, Nurafshon shahar, Toshkent va Piskent tuman dehqon bozorlarida tungi yoritish tizimi mavjud emas.

Qator holatlarda bino-inshootlari va yer maydonlaridan oqilona foydalanish borasida ta’sirchan choralar ko‘rib borilmagan.

Xususan, Bo‘ka, Yuqori Chirchiq tumani va Angren shahar dehqon bozorlarining kadastir hujjatlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan, Bo‘ka tumani dehqon bozorida 222 ta, Ohangaron shahar dehqon bozorida 54 ta, Quyi Chirchiq tumani dehqon bozorida 32 ta, Bekobod shahar dehqon bozorida 2 ta tadbirkorlik subyektiga tegishli savdo va xizmat ko‘rsatish shahobchalari kadastr ro‘yxatidan o‘ztkazilmagan.

Angren va Chirchiq shahar dehqon bozorlari hududida tadbirkorlar tomonidan yengiltipdagi konteynerlar noqonuniy o‘rnatilgan.

Hokim yordamchilari va bank mansabdor shaxslari tomonidan oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga ajratilgan mablag‘larini talon-toraj qilinishi ushbu sohadagi muammolarni yanada jiddiy tus olishga sabab bo‘lmoqda.

Masalan, birgina 2022-yilda “Har bir oila-tadbirkor” dasturining qishloq xo‘jaligi yo‘nalishi bo‘yicha ajratilgan imtiyozli kredit mablag‘laridan 10,5 mlrd. so‘mi talon-toraj qilingan.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadlari uchun ajratilayotgan

mablag'larning maqsadli sarflanmasligi oqibatida bozorlardagi to'kinlikni ta'minlashda jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda.

Misol uchun, aholini arzon o'simlik yog'i bilan ta'minlash maqsadida, "Saxovat va ko'mak" jamg'armasidan "Guaranteed Business Service" MCHJ bir foiz ustama bilan 1 mlrd. So'm o'tkazib berilgan bo'lsa-da, jamiyat tomonidan o'simlik yog'i yetkazib berilmasdan, pullar talon-toraj qilingan.

Yoki, 2022-yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 632 ta subyektga 16,7 mlrd. so'm subsidiya mablag'lari ajratilgan bo'lsa-da, ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni dehqon bozorlariga yetkazib berish tizimi yo'lga qo'yilmagan.

Qayd etilgan tizimli kamchiliklar hamda qonun buzulishi holatlari oqibatida Toshkent viloyatida narx-navoning o'sib ketishi, noqulay sharoitlardan aholining noroziligi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ko'zlagan natijalarga erishilmasligiga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasining 2023-yil 15-fevraldagi "Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida"gi №10.2/10-23-sonli taqdimnomasini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O'zbekiston Respublikasi bosh prokuraturasining 2023-yil 15-fevraldagi "Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida"gi №10.2/10-23-sonli taqdimnomasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (Muzaffar Fayziyev) hamda viloyat "Toshvilbozorsavdo" aksiyadorlik jamiyatlari uyushmasi raisi (Abdumannop Abdulxayev) ga:

taqdimnomada qayd etilgan holatlar bo'yicha xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmay, mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan xodimlarning intizomiy javobgarlik masalasini qat'iy hal qilinishini;

aniqlangan kamchilik va qonun buzulish holatlarini bartaraf etishga qaratilgan yo'l xaritasi ishlab chiqilishini va uning amalga oshirilishi ustidan deputatlar hamda jamoatchilik nazoratini o'rnatish choralarini ko'rsin.

3. Shahat va tuman hokimlariga:

dehqon bozorlarining ahvoli, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini qish bahor masumiga zaxira g'amlanishi hamda mablag'larning maqsadli sariflanishini tegishli mas'ullar bilan birgalikda o'natilgan tatribda nazorat qilib borsin.

4. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (Muzaffar Fayziyev):

bir hafta muddatda taqdimnomada ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etilganligi hamda sessiya qarorida berilgan topishirqlarning ijrosi yuzasidan Bosh porukaturaga axborot kiritsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Muradjan Nasirov hamda viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Muzaffar Fayziyev zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari viloyat
kengashi raisi**



Z.Mirzayev